

BOSHLANG‘ICH SINFDA SAVOD O‘RGATISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Urazbayeva Maftuna

Innovatsion Texnologiyalar Universiteti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan boshlang‘ich ta’limda foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haqida o‘quvchilarga ma’lumot berishimiz, AKT ning hayotimizdagi ro‘li haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar, boshlang‘ich ta’lim, o‘quvchi, o‘qituvchi, texnologiya.

Annotation. This article discusses the use of information and communication technologies in primary education, how we educate students about information and communication technologies, and the role of ICT in our lives.

Key words: Information and communication technologies, primary education, student, teacher, technology.

Аннотация. В этой статье обсуждается использование информационно-коммуникационных технологий в начальном образовании, то, как мы обучаем учащихся информационно-коммуникационным технологиям, а также роль ИКТ в нашей жизни.

Ключевые слова: Информационно-коммуникационные технологии, начальное образование, ученик, учитель, технологии.

Bugungi kunda hayotimizda axborot texnologiyalari muhim ahamiyatga ega. Zamon rivojlangan sayin hayotimizga axborot texnologiyalari ham kirib kelmoqda. Hozirgi paytda yangi ixtiro qilinayotgan texnologiyalar insonlarning ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari inson turmush tarzining ajralmas bo‘lagiga aylangan. Ta’lim sohasida, tibbiyot sohasida va boshqa ko‘plab sohalarda qulay shart-sharoitlarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yaratib berdi. Masalan, ta’lim sohasini oladigan bo‘lsak, uyda o‘tirib onlayn darslarini o‘rganishimiz, mustaqil o‘tirgan holatda kerakli ma’lumotlarimizni olishimiz, oliy o‘quv yurtlariga onlayn tarzda hujjat topshirishimiz mumkin. Bu borada biz axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) foydalanib kelmoqdamiz. Prezidentimiz bu borada 2020-2024 yillarda barcha hududlarda axborot-texnologiyalari texnoparklar tashkil etish, malakali kadrlarni tayyorlash va ularning

sonini 3 barobarga oshirish kabi topshiriqlarni berdilar. Buning natijasida aholining kompyuter savodxonligi, axborot-texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari oshishi, shu o‘rinda axborot-texnologiyalari hamda kompyuter vositalari haqidagi boshlang‘ich bilimlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ham o‘rgatish kelajakdagi rivojlanish uchun poydevor bo‘lishi alohida ta’kidlandi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar deganda, axborot almashish jarayonini birgalikda amalga oshirish uchun mo‘jallangan texnologiyalar tushuniladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalari deganda, mikroprossesor, kompyuter texnologiyalari asosida ishlaydigan, dasturiy ta’limot, axborot texnika vositalari va qurilmalari ma’lumotlarni uzatish, axborot almashish, yig‘ish, ishlab chiqarish, to‘plash, saqlash bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshiradigan zamonaviy vositalar va tizimlar tushuniladi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalar sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish kabi zamonaviy tarmoqlarning taraqqiyotida xizmat ko‘rsatish xavfsizligini ta’minlash, ijtimoiy sohalar, ilm-fan va texnikani rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Hozirgi kunda jamiyatni yuqori texnologiyalarsiz, kompyuterlarsiz, global tarmoqlarga ulanmasdan va axborot resurslarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki bular hayotimizning bir qismiga aylanib qolgan.

Ta’lim tizimida olib borilayotgan yangi islohotlar barcha pedagoglarni zamon talablariga mos keladigan darajada bilim-ko‘nikmaga ega bo‘lishini talab qilmoqda. Ayniqsa, ta’limning ustuni bo‘lgan boshlang‘ich ta’limga katta e’tibor qaratgan holda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari uchun ta’limda yangilik yaratishlari, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda darsni tashkil etishlari, o‘quvchilarda AKTga oid boshlang‘ich tushunchalarni shakllantirishlari so‘ralmoqda. Bugungi kunda ta’lim tizimida yuqori natijaga erishish uchun zamonaviy texnologiyalar, innovatsion vositalar, ommaviy axborot vositalari hamda kompyuter texnologiyalarining o‘rni beqiyos. Jumladan dars jarayonida mavzudan chetlashmagan va vaqtni inobatga olgan holda videorolik, taqdimot, multimedia, audio materiallar, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qiziq bo‘lgan animatsion multfilmlar va ko‘rgazmalardan foydalanish darsga o‘zgacha ruh bag‘ishlash bilan bir qatorda o‘quvchining darsga bo‘lgan e’tiborini yanada jamlaydi va qiziqishini oshiradi. O‘quvchining darsga qanchalik qiziqishi o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. O‘quvchilarning kundalik turmush tarzini kompyuter o‘yinlari, televizor, telefon va ijtimoiy tarmoqlar egallab borayotgan bir paytda o‘qituvchining oddiy, an’anaviy faqat nutq so‘zlash va tushuntirib berish orqali o‘tmoqchi bo‘lgan darsi bola uchun qiziq emas. Pedagog darsga shunday tayyorgarlik ko‘rsinki, barcha bola darsga birdek qiziqsin, o‘quvchilar darsni intizorlik bilan kutsin. Shundagina darsdan ko‘zlangan maqsadga erisha

olamiz.

Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra inson miyasi jamiyki ma’lumotlarning 90%ini ko‘rish orqali, 9% ini eshitish orqali, atigi 1%ini esa his qilish orqali ongida qabul qilar ekan. Bundan ko‘rinib turibdiki, darslarni ko‘rgazmalilik asosida tashkil etish ta’lif samaradorligini ancha oshiradi va biz kutgan natijalarni beradi. Aytaylik o‘qish darsida mavzuga mos bo‘lgan multfilmdan foydalangan holda dars o‘tib, o‘quvchilar xulosasi so‘ralsin. Bunda ham o‘quvchilarni mentalitetimizga mos va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan multfilmlarga qiziqtirgan bo‘lamiz, ham ularni fikrlashga undagan, to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatgan bo‘lamiz. Aynan shu jarayonda ham darsga tayyorlagan materialni to‘liqligicha taqdim etmay, qolgan qismini o‘quvchini o‘zi izlab topishi kerakligini vazifa qilib bersa, o‘quvchi uyda bo‘sh vaqtini keraksiz saytlarda emas, balki foydali ishga sarflaydi. Faqat o‘qish darslarida emas, balki matematika darslarida turli xil ko‘rinishdagi ovozi yoki rasmi testlardan foydalanish, hozirgi kunda yangi kiritilgan SCIENSE fani darslarida turli xil kimyoviy reaksiyalarni video orqali o‘quvchiga ko‘rsatish, tasavvur hosil qilish, o‘quvchilarni sinfdan tashqariga chiqmagan holda turli xil o‘simliklar, hayvonlar bilan tanishtirish mumkin. Birgina o‘qituvchining teran fikrlagani va o‘z kasbiga sadoqat bilan xizmat qilishi natijasida o‘quvchiga ham ta’lim, ham tarbiya beradi, o‘quvchilarni nafaqat darsda, balki uyda ham nimalar bilan bandligini bilishga intiladi va o‘quvchi uchun kerakli muhit yaratadi. Boshlang‘ich sinflarda yorqin rasmlardan foydalangan holda elektron o‘quvqo‘llanmalar va topshiriqlar tayyorlash o‘quvchini qiziqishini oshirishga yordam beradi, ta’lim jarayonini borliq bilan bog‘lash imkonini yaratadi. O‘quvchini darsga qiziqishini oshirishdek mashaqqatli vazifani uddalagandan so‘ng, endilikda o‘quvchilarni o‘ziga AKT yordamida darsga oid materiallar to‘plash topshirig‘ini beradi.

O‘quvchilarga AKT haqida ma’lumot berayotganda eng sodda va boshlang‘ich bilimlarni berish kifoya. Masalan, video va audioning farqli jihatlari va bir-biridan ustunligi, ma’lumotlar bilan ishlash, o‘quvchilar uchun mos bo‘lgan saytlardan foydalanish, kompyuter nimaligi haqida ma’lumot berish, texnologiyalar o‘zi nima, ta’limga oid bo‘lgan texnologiyalarni ajrata olish ko‘nikmalarini shakllantirishning o‘zi ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yetarli bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, har bir inson axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan kerakli maqsadda foydalanishi zarur. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta’lim sohasida foydalanilsa, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlari yanada oshishiga, o‘quvchilarni mustaqil va teran fikrlar bildirishiga, qolaversa, zamon bilan hamnafas bo‘lib, yetuk, barkamol, bilimli va zukko yosh avlodni tarbiyalashga yordam beradi. Shu o‘rinda Prezidentimizning “Kelajagimiz zamini – siz, yoshlar...”, - degan fikrlarini keltirib o‘tishimiz kerak. Haqiqatdan ham biz yoshlar vatanimiz kelajagi uchun

bilimli, zukko va yetuk kadrlar bo‘lib yetishishimiz lozim. Buning uchun o‘z kasbining ustalari chin dildan harakat qilishimiz kerak va bularni amalda qo‘llashimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108 son Farmoni
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi
3. J.G.Yo‘ldashev, S.A.Usmonov “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish” Fan va texnologiya, 2008-yil.
4. Marova Mavludaxon Ruzibaevna (2022). Boshlang‘ich ta’limda aktdan foydalanish ahamiyati. Talqin va tadqiqotlar ilmiyuslubiy jurnali, 173-175.
5. Ergasheva Surayyo Yo‘ldoshevna (2022). Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari.
6. Bekqarayeva Aynur Taubaevna. (2022). Boshlang‘ich sinflarda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish.
7. Tog‘ayeva S jurnal 180-185-sahifa.